



UDK: 37.016:94(575.1)"19/20"

Zarif **BEGIMQULOV**,

PhD, dotsent, mustaqil tadqiqotchi, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: zarifbegimqulov77@gmail.com

Oriental universiteti dotsenti A.Abdumannotov taqrizi asosida

TA'LIM TIZIMIDA JADIDCHILIK HARAKATINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimiz ta'lim tizimida jadidchilik harakati tarixini o'qitishning dolzarbligi, jadidlar asarlarini zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiyalashdagi muammolar, jadidchilik tarixini innovatsion usullarda o'qitishning ahamiyati hamda jadid adabiy merosini o'rgatishda raqamli darsliklar yaratish muhimligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, globallashuv, ta'lim, bilim, o'qitish, metod, metodika, raqamli texnologiyalar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальность преподавания истории джадидского движения в системе образования нашей страны, проблемы интеграции произведений джадидов в современную образовательную систему, значимость использования инновационных методов в обучении истории джадидизма, а также важность создания цифровых учебных материалов при изучении джадидского литературного наследия.

Ключевые слова: Джадидизм, глобализация, образование, знания, обучение, метод, методика, цифровые технологии.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE JADID MOVEMENT IN THE EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article examines the relevance of teaching the history of the Jadid movement within the national education system, the challenges of integrating Jadid literary works into modern educational frameworks, the importance of employing innovative approaches in teaching the history of Jadidism, as well as the significance of developing digital learning materials for the study of Jadid literary heritage.

Keywords: Jadidism, globalization, education, knowledge, teaching, method, methodology, digital technologies.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, milliy tarixiy meros hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda jadidchilik harakati namoyandalari merosini chuqur o'rganish, Yangi O'zbekistonni barpo etishda ularning boy tajribasidan foydalanish milliy yuksalish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini hayotga tatbiq etishning muhim omili sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "... o'z xalqini taraqqiyot sari boshlagan jadid bobolarimiz, milliy ozodlik yo'lida jon fido etgan ulug' ajdodlarimizdir. Ular – g'oyat og'ir sharoitda ham milliy istiqloq va hurriyat g'oyalariga sodiq qolgan qahramonlarimizdir. Bugun ularning ezgu g'oya va tamoyillariga tayanib, yangi hayot, yangi jamiyat poqdevorini yaratmoqdamiz" [1], - degan edi.

JADIDCHILIK (arabcha jadid - yangi) - XIX oxiri XX boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar dab atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloq qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish

mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-16; 1917-20; 1921-29 yillarni o'z ichiga oladi [11].

Professor Begali Qosimov "Jadid" so'zining "yangi", "yangilik tarafdori" degan ma'nolari bilan birga uning "yangi tafakkur", yangi inson", "yangi avlod" singari keng mazmuni ham borligini e'tirof qilgan [8, 5]. Shu boisdan Turkistonda millatni uyg'otish, ma'rifatli qilish va mustaqillikka erishish g'oyasi bilan maydonga chiqqan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda "jadid" degan nomga sazovor bo'ldilar. Ularning harakati esa "jadidchilik" deb nomlandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida jadidchilik harakatini o'rganish Yangi O'zbekistonni barpo etish va milliy o'zlikni anglashda strategik, dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Siyosiy tahlilchi K.Rabbimov "Jadidlarni nega o'rganishimiz kerak?" mavzusidagi maqolasida jumladan shunday deydi: "Globallashgan dunyoda, o'zliklar va tafakkurlar raqobati, to'qnashuvi, oldingidek chegaraviy emas, global bo'ladi. Tarixni bilish –milliy o'zlikni uyg'otish, milliy ishonchni parvarishlash vositasi hisoblanadi. Tarix nafaqat yutuqlar haqida, balki xatolar va fojialar haqida ham so'zlaydi.

Bu bilan, tarix, "kim do'st?", "kim dushman?", "kim bosqinchi?", "kim mustaqilligimizdan manfaatdor?" degan savollarga eng xolis javob bera oladi. Bu savollarning javobi esa, bugungi propagandalar, geosiyosiy kurashlar, tafakkur manipulyatsiyalari davrida, juda zarur ma'naviy ozuqa bo'ladi.

Jadidlar – juda qiziq fenomen. Ular, meni nazaringda, ikki o't orasida qolishgan edi. Bir tomondan asrlar davomida shakllangan va har qanday modernizmga qarshi bo'lgan konservatizm. Ikkinchi tomondan, imperialistik, kolonial

modernizm edi. Jadidlar, o'zliklarimizni so'ndirmasdan, uning asosida mo'tadil va ma'rifatparvar modernizmga erishmoqchi bo'lishdi. Lekin, kolonializm ularning kuchli g'oyasini naqadar jozibador ekanini anglab, ularni to'liq qatag'on qilishdi...

Bu davrni bilish – yaqin o'tmishdagi eng katta jinoyatlar, fojialarni bilish, mustaqilligimiz naqadar ulug' va qimmatli ne'mat ekanini anglatadi..." [9].

D.Babajanova o'z maqolasida: "Yoshlarni ma'rifatli qilib tarbiyalash, ma'naviyatini yuksaltirish, o'tgan buyuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda, e'zozlab, yuksak hurmat va ehtimom ko'rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Binobarin, Yangi O'zbekistonning buyuk ne'mati bo'lgan erki va ozodligi xalqning sa'y-harakati, barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga, Turon zaminda voyaga yetgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib, o'z g'oyalari, tafakkuri bilan o'zbek milliy g'oyasiga asos solgan ajdodlarining boy merosi va sermazmun tarixiga, milliy qadriyatlariga ham tayanadi. Har bir millatning o'ziga xos jihatlarni, xususan, ma'naviyatini yuksaltirishda eng avvalo, beqiyos ta'sir kuchiga ega bo'lgan milliy-tarixiy qadriyatining o'rni katta" [3, 5], ekanligini qayd etadi.

Xo'sh, mamlakatimiz ta'lim tizimida jadidchilik tarixini o'rganish qanday dolzarblik kasb etmoqda?

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida jadidchilik tarixini o'rganishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Jadidchilik tarixini o'rganish milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik g'oyalari yoshlar ongiga singdirish va zamonaviy ta'lim islohotlarini jadidlar merosi (yangi usul maktablari) asosida rivojlantirish uchun dolzarbdir;

2. Jadidlar ijodida vatanparvarlik, mustaqillik va milliy taraqqiyot g'oyalari ustuvor bo'lib, bu yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashga bevosita ta'sir ko'rsatadi;

3. Jadidlarning ta'limga oid qarashlari milliy va zamonaviy xususiyatlarni uyg'unlashtirib, ta'lim jarayonini ilmiy asoslaydi;

4. Jadidchilik merosi o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, sahna tafakkuriga o'rgatadi;

5. Mamlakatimiz tarixining eng murakkab davrlaridan biri bo'lgan sovet repressiyasi davri haqida tushuncha beradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ana shu qadriyatlarni yetkazish, ularni anglashga undash, fikrlash doirasini kengaytirish zamonaviy ta'limning muhim metodik vazifasi sifatida qaralmoqda. Biroq mazkur jarayon ta'lim tizimida bir qator pedagogik muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Jumladan, asosiy pedagogik muammolar tarixiy manbalarni tahlil qilishdagi murakkabliklar, mafkuraviy qarashlarning xilma-xilligi va zamonaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirishdagi qiyinchiliklardir. Shuningdek, mavjud manbalarning murakkabligi, amaliyotda metodik qo'llanmalarining yetishmasligi va talabalarda tarixiy kontekstni tushunishdagi bo'shliqlardir. I.Qarshiyeva bu borada: "...jadid asarlarining ba'zida arxaik tilda yozilgani, zamonaviy o'quvchilar uchun begona tuyulishi, ulardagi ma'naviy mazmuni anglashda qiynalish hollari, o'quv dasturlarida jadid adabiyotiga yetarli e'tibor berilmasligi yoki unga yondashuvning zamonaviy pedagogik metodlardan yiroqligi, ... hozirgi talabaning ma'naviy ehtiyojlari, axborot oqimlari ichida yo'naltirilmagan holda qolishi, tarixiy merosga yuzaki qarashi kabi omillar ham ularni jadid asarlaridagi chuqur ma'naviy qatlamlarni anglashdan chetlatadi" [7, 60], - deb, shu kabi dolzarb muammolarni keltiradi.

Xo'sh, jadidchilik asarlarini zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiyalashdagi qiyinchiliklar qaysi jabhalarda namoyon bo'lmoqda?

I.Qarshiyeva mazkur maqolada o'z fikrini davom ettirib, quyidagilarni qayd etadi: "Birinchidan, jadidlarning asarlari o'z zamoniga xos ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda yozilgan bo'lib, bu ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni bugungi talabalarga tushunishga, ularga o'rgatishga ba'zan qiyinchilik tug'diradi. Shuningdek, jadidlarning asarlari tili va mazmuni talabalarga noto'g'ri yoki noaniq tushunilishi mumkin. Ularning asarlarini zamonaviy pedagogik metodlar orqali o'qitish, tahlil qilish va talabalarga yetkazish uchun o'qituvchilar o'zlarini doimiy ravishda yangilab, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishlari zarur.

Bundan tashqari, jadidchilikning ma'rifiy g'oyalari talabalarga etkazishdagi muammolardan biri – bu o'quvchilarning jadidlar asarlari bilan tanishlik darajasi va ularning dunyoqarashi. Ko'plab talabalar jadidchilikning tarixiy ahamiyatini to'liq anglab yetishmaydi va buning natijasida o'qituvchilar bu asarlarni samarali tarzda talabalarga o'rgatishda qiyinchiliklarga duch keladilar" [7, 62]. Shu sababdan ham mamlakatimiz ta'lim tizimida jadidchilik harakatini o'qitishda turli pedagogik metodlardan, masalan, interaktiv yondashuvlardan foydalanish talab etiladi.

Pedagogik texnologiyalarning afzalligi shundan iboratki, unda olib borilgan mashg'ulotlar muvaffaqiyatli o'tilishining 80 foizi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, olib borish va uni amalga oshirishdan iboratdir.

Interfaol usullardan oqilona foydalanish ta'lim jarayoniga jo'shqinlik, izlanuvchanlik kayfiyatini baxsh etadi, o'quvchilarda o'z imkoniyatlariga ishonch va o'z mehnati natijasidan mamnunlik hissini vujudga keltiradi, bilishga oid qiziqishlarini yanada orttiradi. Bular esa, ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxsi barkamollashuvining muhim omillari bo'lib hisoblanishi tabiiydir. O'qituvchi va talabaning maqsadli natijaga erishishiga qanday texnologiyani tanlashlari ularning ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq bo'lib, u natijaga erishishga qaratilgan. Bunda talabalarining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Natijaga erishish uchun yoki kompyuter bilan ishlash lozim yoki film, tarqatma material, chizma va plakatlarni kerak bo'ladi [10]. Ta'lim muassasalarida jadidchilik harakati tarixini o'qitishda interaktiv metodlar (Aqliy hujum, Klaster, Venn diagrammasi)dan foydalanish talabalarining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning tarixiy voqealarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jadidlarning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta'lim bilan integratsiyalanishi natijasida talabalarda ijodkorlik yuksaladi. Mazkur yondashuv o'quvchi va talabalarda mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish, Turkiston ma'rifatparvarlarining Vatan taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini o'rganish, ularning g'oyalari tahlil qilish hamda milliy o'zlikni anglashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Bugungi o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki fikrlashga, izlanishga va jamiyatda faol bo'lishga undovchi yetakchi bo'lishi zarur. Jadidlar boshlab bergan ta'limdagi yangilanish ruhi – hozirgi kunda STEAM metodikasi, interaktiv darslar, raqamli vositalardan foydalanish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali davom etmoqda. O'qituvchi o'z darslari orqali jadidlar singari o'quvchilarga nafaqat bilim, balki ma'naviy mezon, hayotga ongli yondashuvni ham berishi kerak. Bugungi kunda jadidchilik g'oyalari targ'ib qilishda o'qituvchining vazifalari nihoyatda muhim va ko'p qirrali. Jadidlar ilgari surgan ma'rifat, yangilanish, zamonaviy bilimlar va tarbiyaning ahamiyati bugungi ta'lim jarayonida ham o'ta dolzarb hisoblanadi. Quyida o'qituvchining asosiy vazifalari keltirilgan:

a) Zamonaviy va milliy ta'lim uyg'unligini ta'minlash
O'qituvchi har bir darsda milliy qadriyatlar bilan zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirib, jadidlar g'oyasini hayotga tatbiq etadi. Bu – o'quvchilarda o'zligiga sadoqat va global tafakkur uyg'otadi.

b) Ma'rifatparvarlikni targ'ib qilish

Jadidlarning asosiy maqsadi – xalqni savodli qilish, ilm-fanga rag'bat uyg'otish edi. Bugungi o'qituvchi yosh avlodni o'qishga, ilm olishga undashi, mustaqil fikrlashga o'rgatishi kerak.

d) Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish

Jadidlar shunchaki bilim emas, tafakkur, tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish tarafdori edilar. O'qituvchi ham o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, savol berishi va ijod qilishini qo'llab-quvvatlashi lozim.

f) Vatanparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirish

Jadidlar yoshlarni vatanini sevuvchi, halol, ma'suliyatli fuqaro qilib tarbiyalashga intilgan. O'qituvchi bugun shu yo'lni davom ettirib, o'quvchilarni ijtimoiy faollikka, mas'uliyatli fuqarolikka yetaklaydi.

j) Ochiq fikrlik va diniy bag'rikenglikni o'rgatish

Jadidlar islomiy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy dunyoqarashga ochiq bo'lishni targ'ib qilganlar. Bugungi o'qituvchi ham turli dunyoqarash va madaniyatlarni tushunish va hurmat qilishga o'rgatadi.

f) Raqamli va texnologik savodxonlikni oshirish

Jadidlar davrida bosma matbuot, teatr, maktab yangilik edi. Bugun esa raqamli texnologiyalar har bir sohaning asosi bo'lib jamiyatga kirib keldi. O'qituvchi o'quvchilarning axborot texnologiyalaridan ongli va samarali foydalanishiga yo'l ko'rsatadi [2].

M.Ismoilova o'zining “Umumta'lim maktablarida Abdurauf Fitrat ijodining o'qitilishi” nomli maqolasida: “Adabiyot o'qitishga bugungi kun talablaridan kelib chiqib yondashish, zamonaviy o'quvchining estetik talab va ehtiyojlari doirasida ularga jadid adabiyoti namunalarini tavsiya etish, bunda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda badiiy matn tahlilida tegishli ish turlarini tanlash natijasida adabiyot darslarining o'quvchi yoshlar uchun qiziqarli va mazmunli bo'lishiga, ularning darslarda faol ishtirokchiga aylanishlariga erishish mumkin bo'ladi, pirovardida esa jadid adabiyoti namunalari o'quvchilarning ma'naviy mulkiga aylanishiga erishiladi” [4], deb ta'kidlaydi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, maktablarda

hamda oliy ta'lim muassasalarida jadidchilik tarixini innovatsion shaklda o'qitish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning tarixiy voqelikka bo'lgan munosabatini chuqurlashtiradi. Jadidchilik tarixini innovatsion usullarda (interaktiv o'yinlar, multimedia, loyihalar) o'qitish o'quvchilarda vatanparvarlik, tanqidiy fikrlash va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini kuchaytiradi. Bu yondashuv ma'rifatparvar jadidlar g'oyalarini yoshlarga zamonaviy tilda yetkazib, ularni mustaqil ijodiy izlanishga va milliy tiklanish yo'lida faol bo'lishga o'rgatadi. Shu sababli, N.Jakbarova qayd etganidek: “...jadidchilik tarixini o'rganish va o'rgatish jarayonini zamonaviy innovatsion yondashuvlar orqali boyitish – nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki yosh avlodga tarixiy ong, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi” [5].

X.Narxodjaye va A.Jumanazarovalar o'zlarining maqolasida ta'kidlashicha: “... jadid adabiy merosini o'rgatishda raqamli darsliklar yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday darsliklar interfaol matnlar, animatsiyalar, o'qimcha multimedia materiallari, videodarslar, izohli lug'atlar, xaritalar va testlar bilan boyitiladi. Bu esa o'quvchilarning materialni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Raqamli darsliklar orqali jadid adabiyotining murakkab tarixiy, ma'rifiy va g'oyaviy qatlamlarini vizual vositalar yordamida tushuntirish osonlashadi. Bundan tashqari, elektron darsliklar o'qituvchi uchun darsni samarali tashkil qilish, o'quvchilar uchun esa materialni istalgan joyda mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu kabi raqamli yondashuvlar jadid merosini zamon talablari asosida targ'ib qilishning eng samarali vositalaridan biri bo'lib, yosh avlodning milliy adabiyotga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi” [6].

Xulosa. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan ma'rifatparvarlik va milliy uyg'unlik harakati bo'lib, mazkur harakat vakillarining ma'rifatparvarlik g'oyalari, ularning ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or qarashlari bugungi kun ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda ham fundamental metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarida jadidchilik tarixini o'qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali boyitish -jadidchilik harakatini o'qitish metodikasini takomillashtirishning muhim shartidir. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi va talabalarning faolligini ta'minlash va ularda mustaqil fikrlashni shakllantirishning eng samarali yo'li hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi - xabar.uz <http://m.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston>.
2. Abdullayeva S.I. Jadidchilik ruhini davom ettirish – zamonaviy o'qituvchi va yoshlarning vazifasi: taklif va mulohazalar. “Jadidchilik: o'zgarish va taraqqiyot” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami - 2025-yil 31-may II qism. “Durdona” nashriyoti, Buxoro – 2025, B.87-89.
3. Babajanova D. Jadidlar va ularning yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashdagi o'rni. “Jadidchilik: o'zgarish va taraqqiyot” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami - 2025-yil 31-may II qism. “Durdona” nashriyoti, Buxoro – 2025, B.4-9.
4. Ismoilova M.B. Umumta'lim maktablarida Abdurauf Fitrat ijodining o'qitilishi. “Jadidlar adabiy merosini o'rganish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami, Qarshi-2025, B.396-399.
5. Jakbarova N. Jadidchilik tarixini o'qitishda innovatsion yondashuvlar. Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала №-69 Часть-3 Мая-2025, B.318-323. nargiza2025jakbarova@gmail.com
6. Narxodjaye va X., Jumanazarova A. Jadid adabiyotini raqamli platformalar orqali o'qitishning innovatsion modellari. “Jadidlar adabiy merosini o'rganish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami, Qarshi-2025, B.365-368.
7. Qarshiyeva I.B. Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni o'rgatishdagi pedagogik muammolar. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi, B.60-63.
8. Qosimov.B. Milliy uyg'unlik:jasorat, ma'rifat, fidoyilik.– T.:Ma'naviyat, 2002. – 400 b.
9. Rabbimov K. “Jadidlarni nega o'rganishimiz kerak?” <https://kun.uz/61979872>
10. Усаров У.Т., Бобокулова М.Н. Замонавий педагогик технологияларни ўқув жараёнига қўллаш. Самарканд-2008.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3 жилд. Гидрофилия-Зебралар. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 704 б.